

**TELEKOMMUNIKATSIIYA XIZMATLARI KO'RSATILISHI TO'G'RSIDA
ABONENT SHARTNOMASI**

Yuridik shaxslar (shu jumladan, budjet tashkilotlari) uchun

Farg'ona sh.

"21" 01. 2022 yil

"O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o'rinlarda – Kompaniya) nomidan 2021 yil "31" Dekabrda № 27-01/14/6024 son ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Kompaniyaning Farg'ona filiali Direktori V.Yejkov (keyingi o'rinlarda – Operator) bir tomondan, Farg'ona tumani irrigatsiya bo'limi nomidan Ustav (Nizom, ro'yxatga olinganlik to'g'risidagi guvohnoma ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi R.Xaydarov (keyingi o'rinlarda – Abonent) ikkinchi tomondan (keyingi o'rinlarda birgalikda – Tomonlar) telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi bo'yicha quyidagilar haqida Abonent shartnomasini (keyingi o'rinlarda – Shartnoma) tuzdilar:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Abonent ushbu Shartnomani imzolab:

- Operatorning WWW.UZTELECOM.UZ rasmiy veb-saytida e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-369-moddalariga muvofiq "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasining telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida abonent shartnomasini tuzishga rasmiy ommaviy taklifi bo'lgan Ommaviy ofertasi (keyingi o'rinlarda – Oferta) shartlari bilan to'liq tanishib chiqqanligini tasdiqlab, ushbu Oferta shartlari asosida Operator bilan telekommunikatsiya xizmatlari ko'rsatilishi to'g'risida shartnoma tuzadi;

- Operator tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun Abonent Dastlabki avans to'lovini amalga oshirishi va to'lov faktini tasdiqlovchi tegishli moliyaviy hujjati olishi Operator Ofertasining shartlarini so'zsiz qabul qilishi (akseptini) hisoblanadi.

1.2. Tomonlar Ofertaning 2-moddasida ko'rsatilgan maqsadlarda ushbu Shartnomani imzolaganidan so'ng, Operator Abonentga identifikatsiya raqamini beradi. Identifikatsiya raqami berilganidan so'ng, Abonent, Operator tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar ro'yxat doirasida o'z tanlovidan kelib chiqib, Dastlabki avans to'lovini amalga oshirishi mumkin.

1.3. Xizmat ko'rsatish shartlari Ofertaning 3-moddasida belgilangan asoslarda va Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi hamda ushbu xizmatni taqdim etish uchun texnik imkoniyatlar mavjudligidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

2. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2.1. Operator ushbu Shartnomani imzolagan vaqtdan boshlab, Ofertaning 4-moddasida belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

2.2. Abonent ushbu Shartnomani imzolagan vaqtdan boshlab, Ofertaning 5-moddasida belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

2.3. Tomonlar ushbu Shartnoma amal qilish davrida, o'z huquq va majburiyatlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash yuzasidan zarur choralarni amalga oshiradilar.

3. Hisob-kitob va to'lovlar tartibi

3.1. Mazkur Shartnoma bo'yicha Ofertaning 6-moddasiga muvofiq, xizmatlar (mobil aloqa xizmati bundan mustasno) ko'rsatilganidan keyin to'lovni amalga oshirish (Postpaid) tizimi shartlari tatbiq etiladi.

3.1.1. Mobil aloqa xizmati uchun ushbu Shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatilishidan oldin to'lovni amalga oshirish (Prepaid) tizim shartlari tatbiq etiladi va oylik hisob **100 (bir yuz) foiz** miqdorida oldindan to'lanadi.

3.2. Tariflar Abonent bilan Shartnoma tuzilganda va Operator xizmatlaridan foydalanish jarayonida Abonent bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun majburiydir. Xizmatlar uchun barcha tariflar milliy valyutada ko'rsatiladi va ushbu Shartnoma tuzilgan vaqtda belgilangan barcha soliqlar va yig'imlarni o'z ichiga oladi.

3.3. Xizmatlardan foydalanish uchun Abonent to'lovi birinchi oyda ushbu Shartnoma tuzilgan sanadan boshlab **3 (uch) bank kuni** mobaynida amalga oshiriladi.

3.3.1. Ilk bor ulanishda Abonent to'lovi **100 (bir yuz) foiz** miqdorida oldindan to'lanadi. Dastlabki avans to'lovi oldindan to'lov bo'yicha talabnoma (hisob) asosida hamda ushbu Shartnomaning tegishli ilovasida (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo'yicha) ko'rsatilgan miqdorga muvofiq har bir tanlangan xizmat turi uchun alohida amalga oshirilishi mumkin.

3.4. **Budjet tashkiloti bo'lgan Abonent uchun** Shartnomaning umumiy summasi ushbu Shartnomaning tegishli ilovasiga (Abonent tomonidan tanlangan xizmat turi bo'yicha) muvofiq ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bilan belgilanadi.

Shartnomaning umumiy summasi (QQSni hisobga olgan holda) **600000 (Olti yuz ming)** so'mni tashkil etadi
Ushbu summa () so'm miqdoridagi oylik Abonent to'lovini hamda o'z ichiga oladi.

3.4.1. Mazkur Shartnomaning umumiy summasi oshib ketgan taqdirda, ortiqcha summa Tomonlar o'rtasida imzolangan qo'shimcha kelishuv/taqdim etilgan hisob-faktura asosida to'lanadi.

3.5. Abonent ushbu Shartnomaga asosan yoki berilgan hisob-faktura asosida har oyda Operator tomonidan hisob-faktura berilgan kundan boshlab **3 (uch) bank kuni** ichida ushbu Shartnomada ko'rsatilgan Operatorning Shaxsiy (elektron) hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan Operator tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar haqini to'laydi.

3.6. Agar Abonentning Shaxsiy (elektron) hisob raqamida xizmatlar ko'rsatish uchun yetarli mablag' bo'lmasa yoki mazkur Shartnomaning 3.5-bandida ko'rsatilgan muddatda har oylik hisob-faktura bo'yicha to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa, Operator ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishini to'xtatishi mumkin.

3.7. Operator tomonidan ulangan va taqdim etilgan xizmatlardan Abonent tomonidan foydalanilmasligi, Abonentga ushbu xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish asos bo'la olmaydi.

3.7.1. Agar Abonent Operator xizmatlaridan foydalanishni vaqtincha to'xtatishni, shuningdek, hisobot davri (kalendar oyi) uchun istalmagan to'lovlarning oldini olishni istasa, Abonent hisobot oyining 1-kunidan oldin xizmatlarni ixtiyoriy ravishda blokirovka qilish uchun ariza topshirishi kerak. Blokirovka qilish tartibi Oferta qoidalari bilan tartibga solinadi.

3.8. Operatorning bonuslar ko'rinishida reklama aksiyalari doirasida Abonentga taqdim etilgan barcha mablag'lar faqat Operator xizmatlari uchun to'lanishi mumkin va Shartnoma bekor qilinganda Abonentga pul shaklida to'lanmaydi yoki qaytarilmaydi.

3.9. Operator tomonidan taqdim etilgan xizmatlar, Shartnomaga muvofiq har bir xizmat turi uchun alohida rasmiylashtiriladigan hisob-faktura bilan yopiladi. Har bir hisob-fakturada taqdim etilgan xizmatlarning to'liq kalendar oyi uchun umumiy miqdori ko'rsatiladi.

3.9.1. Agar Abonent **10 (o'n) ish kuni** mobaynida Operator tomonidan taqdim etilgan hisob-faktura bo'yicha o'z e'tirozlarini yozma yoki elektron shaklda taqdim etmasa, ushbu xizmat turi bo'yicha hisob-faktura qabul qilingan va xizmatlar tegishli tarzda ko'rsatilgan det

hisoblanadi. Abonentning e'tirozlari asoslantirilgan taqdirda, Operator keyingi kalendar oyida taqdim etiladigan xizmatlar uchun talabnomasida (hisobida, hisob-fakturada) tegishli tuzatishlarni amalga oshiradi.

3.10. Ofertaning 6.15-kichik bandida belgilangan tartibda, Abonentning Shaxsiy (elektron) hisob raqamining balansi salbiy bo'lganida **1 (bir) kalendar oydan** oshmagan muddatga Abonentning kafolat xati asosida Operator tomonidan Abonentga xizmatlardar foydalanish imkoniyati berilishi mumkin.

4. Tomonlar javobgarligi

4.1. Tomonlar Ofertaning 8-moddasiga va ushbu Shartnomaga muvofiq belgilangan majburiyatlarni bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida hamda Ofertada nazarda tutilgan tartibda va miqdorlarda javobgar bo'ladi (Tomonlarga nisbatan javobgarlikning cheklanish holatlari bundan mustasno).

5. Nizolarni hal qilish tartibi

5.1. Tomonlarning ushbu Shartnomani bajarish bilan bog'liq masalalar bo'yicha barcha nizolari va kelishmovchiliklari Ofertaning 11-moddasi talablari asosida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hamda nizolarni sudgacha hal etish tartibiga rioya qilingan holda o'zaro kelishuv orqali hal qilinadi.

5.2. Tomonlar o'rtasida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklarni o'zaro kelishuv orqali hal etishning imkoni bo'lmagan taqdirda nizolar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Farg'ona tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

6. Alohida shartlar

6.1. Tomonlar mazkur Shartnomaning amal qilish davrida o'z huquqlari va majburiyatlari bilan bog'liq ravishda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini normalarni buzishi mumkin bo'lgan har qanday choralar ko'rmasliklari yoki xatti-harakatlarni sodir etmasliklari yuzasidan majburiyatlarini qat'iy e'tirof etgan holda, o'zaro hamkorlik madaniyatini yuqori darajada ta'minlash va korrupsiya holatlariga murosasiz kurashish choralarini ko'radi.

6.2. Mazkur Shartnomaning amal qilish davrida Tomonlarning irodasi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan har qanday holatlarda va hodisalarda (yengib bo'lmaydigan kuchlar/fors-major holatlari) Ofertaning 10-moddasi qoidalariga amal qilinadi.

6.3. Abonentning yozma/elektron shaklda taqdim etilgan ariza/e'tiroznoma/shikoyat/taklif ko'rinishidagi murojaati ko'pi bilan 30 (o'ttiz) kun davomida ko'rib chiqiladi va tegishli shaklda javob beriladi. Bunda murojaatni ko'rib chiqish uchun 15 (o'n besh) kundan ortiq muddat talab etilsa, Abonent (murojaat muallifi) Operator tomonidan bu haqda majburiy ravishda xabardor qilinadi.

7. Yakuniy qoidalar

7.1. Ushbu Shartnomaning barcha muhim shartlari Ofertaga muvofiq belgilanadi. Ushbu Shartnomada yoki Ofertada nazarda tutilmagan hollarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga amal qiladi.

7.2. Ushbu Shartnoma Tomonlar o'rtasida imzolangan paytdan boshlab, kuchga kiradi va **2022 yil 31 dekabr**ga qadar amal qiladi. Agar, Shartnomaning belgilangan amal qilish muddati tugaganidan so'ng, Tomonlar (budjet tashkiloti bo'lgan Abonentga tatbiq etilmaydi) o'z shartlarini bajarishni davom ettirsa va Tomonlarning hech biri uning bekor qilinishini e'lon qilmagan bo'lsa, Shartnoma har bir keyingi yilga uzaytiriladi.

7.2.1. **Budjet tashkiloti bo'lgan Abonent** uchun ushbu Shartnoma vakolatli davlat organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va **2022 yil 31 dekabr**ga qadar amal qiladi.

7.2.2. Abonent tomonidan ushbu Shartnomaning imzolanishi – Oferta akseptini (Abonentning Oferta shartlarini qabul qilganligi haqidagi javobini) bildiradi.






7.3. Ushbu Shartnoma, shu jumladan, Operatorning rasmiy veb-saytida e'lon qilingan Oferta, ilova va qo'shimchalar (agar mavjud bo'lsa) Shartnoma predmeti yuzasidan Operator va Abonent o'rtasida to'liq Shartnomani tashkil etadi.

7.4. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari, ularning ta'sis hujjatlarini (mulkdorlari) o'zgartirgan taqdirda, shu jumladan tashkiliy-huquqiy shaklining o'zgarishi va boshqa o'zgarishlar ro'y bergan taqdirda Shartnoma o'z kuchida qoladi. Tomonlar bunday o'zgarishlar amalga oshirilgan kundan boshlab, **10 (o'n) kalendar kun** ichida bir-birlarini xabardor qilishlari shart.

7.5. Ushbu Shartnomaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilganda (agar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan bo'lsa) va ushbu harakatlar Tomonlarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan hamda Tomonlarning muhrlari (mavjud bo'lgan taqdirda) bilan tasdiqlangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

7.6. Ushbu Shartnoma davlat tilida, 2 (ikki) nusxada rasmiylashtirilgan (har bir Tomon uchun bitta nusxadan beriladi).

8. Tomonlarning manzillari va bank rekvizitlari:

Operator»	«Abonent»
<p>«Uzbektelekom» AK Farg'ona filiali</p> <p>Manzil: 150100 Fargona viloyati Fargona shahar Al-Fargoniy 5 Tel: 73 229-0010; 73 229-0011 X/r: 2021 0000 3040 7483 8418 Aloqabank ATB Farg'ona filiali MFO: 00401 STIR: 203 366 731 OKED: 61100</p> <p>Call markaz 1155 El.Pochta: fertel@uztelecom.uz Direktor:  V. Yejkov Yuriskonsult: </p> 	<p>Fargona tumani Irrigatsiya bulimi</p> <p>Manzil: Farg'ona tuman Yu. Vodil MFY, Yaxshi Niyat kuchasi 58 Tel: Faks: 73-353-21-46 X/r: 100022860302337042402170001 Bank nomi : Turon bank Fargona MFO: 00498 STIR: 305082354 OKED:</p> <p>Контактные телефоны Tel: 73-353-21-46</p> <p>El.Pochta: fargonatib@uz</p>   <p>ydarov</p>

Ko'rsatiladigan xizmat

1. Xizmat turlari va ularning tariflari

Qiymat birligi Milliy valyuta – So'm

№	Xizmatlar nomi	Bahosi (Narxi) QQS bilan	Asos	soni	So'mmasi, QQS bilan so'm
1	2	3	4	5	6
I. Bir vaqtdagi (bir martalik) tulov					
1.1	Ulanish nuqtasi uchun ro'yxatdan o'tish to'lovi	0	Narxnoma	0	0
P. Xar oylik tulov					
2.1	Budjet UZ tarif rejasiga asosan Internet tarmogiga ulanish	80 000,00	Narxnoma	1	80 000,00
2.2	Mini Offici-1 tarif rejasiga asosan Internet tarmog'iga ulanish tezligi 10 Mb/s	55 000,00	Narxnoma	1	55 000,00
Vsego					135000

Shartnoma bo'yicha to'lanadigan oylik abonent to'lovi : 135 000 (Bir yuz uttiz besh ming) sum,
15% QQS bilan

«Operator»
«O'zbektelekom» AK «Farg'ona» filiali

«Abonent»
Farg'ona tumani irrigatsiya bo'limi



V.Yejkov



or



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA
№ LB0188231024**

1. Loyihaning turi: shartnoma
2. Loyhaning nomi: telekommunikatsiya(internet) xizmatlari ko'rsatish to'g'risida
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:
Farg'ona tuman Irrigatsiya bo'limi tomonidan 2022-yil 20-yanvar kuni dasturga kiritilgan

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra

XULOSA:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Farg'ona tumani yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti:



M.Rasulov

xDSL/FTTx/xPON

Trafigi cheklanmagan "Business Unlim" seriyasi

Tarif rejasi	Abonent to'lovi, so'm	Internet tarmog'iga ulanish tezligi, Mbit/s				"Uz-IX" va "Tas-IX" tarmoqlariga ulanish tezligi, Mbit/s			
		ADSL *	VDSL	FTTB	GPON	ADSL *	VDSL	FTTB	GPON
Business Unlim 100	1 990 000			100	100			100	100
Business Unlim 60	1 290 000			60	60			60	60
Business Unlim 40	990 000		40	40	40	40	40	40	40
Business Unlim 30	890 000		30	30	30	30	30	30	30
Business Unlim 20	690 000		20	20	20	20	20	20	20
Business Unlim 10	490 000		10	10	10	10	10	10	10
Business Unlim 7	390 000	7	7	7	7	7	7	7	7

100 Mbit/sekunddan yuqori bo'lgan tezlikda Internetga kirish taqdim etilganda, 1 Mbit/s uchun narx "Business Unlim 100" tarif rejasi narxidan kelib chiqqan holda (ya'ni, 1 Mbit/s uchun 19 900 so'm), hisoblanadi va "Uz-IX", "TAS-IX" tarmog'ining tezligi Internet tarmog'iga kirish tezligiga (xalqaro tashqi kanal) teng bo'ladi.

Tarif rejasiga VDSL texnologiyasi bo'yicha ulanishni faqat tegishli oxirlovchi uskunalar va texnik imkoniyatlar mavjud bo'lgandagina, sotuv va xizmat ko'rsatish ofislarida amalga oshirish mumkin.

Abonentda ADSL texnologiyasi bo'yicha ulangan IPTV-xizmati mavjud bo'lsa, tarif rejasida e'lon qilingan tezlikni ta'minlashning texnik imkoniyati UZTELECOM sotuv va xizmat ko'rsatish ofisiga yozma murojaat orqali aniqlanadi.

xDSL/FTTx/xPON

Trafigi cheklanmagan "Corporate" tarif rejalar seriyasi

Tarif rejasi	Abonent to'lovi, so'm	Internet tarmog'iga ulanish tezligi, Mbit/s (19:00 dan 00:00 gacha)	Internet tarmog'iga ulanish tezligi, Mbit/s (00:00 dan 19:00 gacha)	UZ-IX va TAS-IX ga ulanish tezligi, Mbit/s
Corporate-7***	1 000 000	25	100	100
Corporate-5**	700 000	10	40	40
Corporate-4**	450 000	5	20	20
Corporate-3**	300 000	2,5	10	10
Corporate-2*	270 000	1,5	6	6
Corporate-1*	240 000	1	4	4

* ADSL texnologiyasi bo'yicha ulangan abonentda IPTV xizmati mavjud bo'lganda, tarif rejada ma'lum qilingan tezlikni taqdim etishning texnik imkoniyati UZTELECOM sotuv va xizmat ko'rsatish ofisiga yozma murojaat qilish orqali aniqlanadi.

** xPON/FTTx/VDSL texnologiyalari bo'yicha ulangan abonentlarga taqdim etiladi. VDSL texnologiyasi bo'yicha tarif rejaga faqatgina tegishli oxirlovchi uskunalar va texnik imkoniyatlar mavjud bo'lgandagina sotuv ofisida ulanish mumkin.

*** xPON/FTTx texnologiyasi bo'yicha ulangan abonentlarga taqdim etiladi.